ANDIJON VILOYATI XONOBOD SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-oktabr | 261-1-30-Q/24 | Xonobod shahar hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholini ish bilan ta′minlash to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasiga, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25- moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2024-yil 27-sentyabr 000-sonli xati ma′lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahardagi ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish va band etilgan ish joylarini nazorat qilish bo‘yicha shahar komissiyasining tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2025-yilda shahardagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiylanayotgan shaxslarning ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini eng kam miqdorini barpo etish bo‘yicha shahardagi korxona, tashkilot va muassasalarda “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun kvota ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish” rejasi yuzasidan taklifi 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. “Aholini ish bilan ta′minlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan mazkur qaror bilan tasdiqlangan ilovadagi korxona tashkilot, muassasalarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishdan qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish xamda ilovada ko′rsatilgan hodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 6 foizi 139,5 ta miqdorida belgilansin. Jumladan:

Yolg‘iz ota, yolg‘iz ona hamda o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun 48 nafar;

Ta′lim muassasalarni tamomlagan yoshlar uchun 30 nafar;

Muddatli harbiy hizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 2 nafar;

Nogironlar uchun 16 nafar;

Shahar bandlik bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun 4,5 nafar;

Jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun 8,5 nafar;

“Odam savdosi”dan jabr ko‘rganlar va shaxslarning boshqa toifalari uchun 3 nafar;

Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy axamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar xamda qonun xujjatlariga muvofiq boshqa shaxslar uchun 12 nafar;

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan shaxslar uchun 15,5 nafar;

4. Shahardagi korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ajratilgan ish joylarida hodimlarning o‘z mehnat majburiyatlarini bemalol bajarilishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlarini yaratish;

mehnat qonunchiligi bo‘yicha qisqartirilgan ish soatlari va qo‘shimcha mehnat ta’tillarini tashkil qilish;

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o’rinlarini ko’rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda belgilangan muddatlarda va tartibda ajratilishini (ajratilishini yoki band qilib qo‘yilishini) ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

5 .Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshligi (S. Xalilov)ga bir hafta muddatda mazkur qarorning ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarga band qilib qo‘yilishi lozim bo‘lgan ish o‘rinlari soni yuzasidan shahar hokimligiga axborot taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

6. Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (S.Xalilov)ga shahardagi tashkilot, korxona va muassasalar rahbarlari tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish joylarining mehnat sharoitlariga mos kelishi ustidan nazorat olib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan mazkur qaror bilan tasdiqlangan ilovada ko‘rsatilgan korxona, tashkilot, muassasa rahbarlari ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun joylarini ko‘rsatib o‘tilgan soni bajarilmagan taqdirda, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni

ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandiga asosan jarima solinishi belgilab qo‘yilsin.

8. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan ilovada ko‘rsatilgan korxona, tashkilot, muassasalarda zaxiralangan ish o‘rinlarning eng kam sonidan orttirib bajargan tashkilotlarga O′zbekiston Respublikasi Vazirining 19-2019-B-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Nizomga talablari doirasida “Subsidya”lar ajratish ta′minlansin.

9. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan shahar hokimining 2023-yil 20-noyabrdagi 119-1-30-Q/23sonli qarori 2025-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan kuchga kiritilsin.

11. Shahar hokimligi matbuot xizmati (Jabaraliyev)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari sahifalari orqali keng ommaga yetkazish tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytida joylashtirsin.

12. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari E.Abduraxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Xonobod shahar hokimi **M.Tajibayev**

Xonobod shahar hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
261-1-30-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish va band etilgan ish joylarini nazorat qilish bo‘yicha shahar komissiyasining

T A R K I B I

T/r	F.I.SH		Lavozimi
1	E.Abduraxmonov		Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari, komissiya raisi
2	S.Xalilov		Shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
K O M I S S I Y A A’ Z O L A R I			
3	Lavozimiga ko‘ra		Shahar hokimining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
4	Lavozimiga ko‘ra		Hududiy MFY raislari
5	M.Soliev		Shahar statistika bo‘limi boshlig‘i
6	Sh.Axmadqulov		Shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari
7	M.Abduxalilov		Shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi davlat mehnat huquq inspektori

Xonobod shahar hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
261-1-30-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Andijon viloyati Xonobod shahri bo'yicha 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yilgan ish o'rinlariga ishga joylashtirish bo'yicha

MANZILLI JADVAL

T/r	Hudud nomi	Topshiriq belgilangan korxona nomi	Korxona INN raqami	Korxonada ishlovchi-lar soni	Jami band qilingan ish o'rinlari soni	Shu jumladan:								
						14 yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o'rta va o'rta-maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarini tamomlab kasbga ega bo'lgan yoshlar, "Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari	Muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan-lar	Nogironlar uchun	Pensiya-oldi yoshdagi shaxslar uchun	Jazoni o'tash muassasalari-dan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurbon-lari uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydi-gan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxlar uchun	Oilaviy (maishiy) zo‘ravon-lik natijasi-da jabrlan-gan shaxslar uchun

1	Xonobod shahar	Aksiyadorlik jamiyati shaklidagi "Andijonkabel" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi	200248856	1352,00	**53,00**	18,00	10,00	1,00	2,00	2,00	4,00	2,00	7,00	7,00
2	Xonobod shahar	Xonobod shahar tibbiyot birlashmasi	200248215	451,00	**21,00**	5,00	5,00		2,00	2,00	2,00		1,00	4,00
3	Xonobod shahar	Xonobod shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi	203873251	162,00	**8,00**	2,00	2,00				1,00		2,00	1,00
4	Xonobod shahar	Xonobod shahar madaniyat bo'limi	200248279	27,00	**2,00**	1,00			1,00					
5	Xonobod shahar	Xonobod shahar davlat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi	200248230	50,00	**3,00**	1,50	1,00				0,50			
6	Xonobod shahar	"Andijon GES" unitar korxonasi	200248365	42,00	**6,00**	1,00	1,00		1,00		1,00	1,00		1,00
7	Xonobod shahar	1-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203084577	82,00	**4,00**	1,00	1,00						1,00	1,00
8	Xonobod shahar	2-umumiy o'rta ta'lim maktabi	207046880	86,00	**4,00**	2,00	1,00		1,00					
9	Xonobod shahar	3-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203089625	36,00	**2,00**	1,00	0,50		0,50					
10	Xonobod shahar	4-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203089625	66,00	**4,00**	1,50	1,00	1,00	0,50					
11	Xonobod shahar	5-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203089633	33,00	**2,00**	1,50	0,50							

12	Xonobod shahar	6-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203084584	32,00	**2,00**	1,00	0,50		0,50					
13	Xonobod shahar	Ayrim fanlar chuqur o'rgatiladigan 9-davlat ixtisoslashtirilgan maktab	201454133	33,00	**2,00**	1,00	0,50		0,50					
14	Xonobod shahar	8-son bolalar musiqa va san'at maktabi	203089672	46,00	**5,00**	1,00	0,50		1,00	0,50			1,00	1,00
15	Xonobod shahar	Xonobod shahar bolalar va o'smirlar sport maktabi	207062134	38,00	**2,00**	1,00	0,50		0,50					
16	Xonobod shahar	Xonobod shahar kasb-hunar maktabi	200248144	33,00	**2,00**	1,00	0,50		0,50					
17	Xonobod shahar	Xonobod shahar 1-son maktabgacha ta'lim muassasasi	200248144	50,00	**4,00**	1,00	1,00		1,00					1,00
18	Xonobod shahar	Xonobod shahar 2-son maktabgacha ta'lim muassasasi	207046880	18,00	**1,00**	0,50			0,50					
19	Xonobod shahar	Xonobod shahar 3-son maktabgacha ta'lim muassasasi	305912245	25,00	**1,50**	1,00			0,50					

20	Xonobod shahar	Xonobod shahar 4-son maktabgacha ta'lim muassasasi	207030142	25,00	**1,00**	1,00								
21	Xonobod shahar	Xonobod shahar 5-sonli davlat maktabgacha ta'lim muassasasi	207010981	42,00	**3,00**	1,00	1,00		1,00					
22	Xonobod shahar	Xonobod shahar 6-son maktabgacha ta'lim muassasasi	207030134	53,00	**2,50**	1,00	1,00		0,50					
23	Xonobod shahar	Xonobod shahar 7-son maktabgacha ta'lim muassasasi	305912206	27,00	**1,50**	0,50	0,50		0,50					
24	Xonobod shahar	Xonobod sanoat texnikumi	200248168	47,00	**3,00**	1,00	1,00		0,50					0,50
Jami:				**2856,00**	**139,50**	**48,00**	**30,00**	**2,00**	**16,00**	**4,50**	**8,50**	**3,00**	**12,00**	**15,5**